

“So‘z boshi salom, ish boshi intizom” deydi dono xalqimiz. Mehnat intizomining asosi texnik xavfsizlik qoidalari va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarga amal qilishdan boshlanadi. Mehnatni muhofaza qilish - tegishli qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi havfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat. *“Korxonaga ishga kiruvchi hamma ishchilar, mazkur korxonada ishlash uchun xizmat safariga yuborilganlar, shuningdek amaliyot o‘tayotganlar malakasi, staji, ish tajribasidan qat‘iy nazar, mehnat muhofazasi borasida bilimga ega bo‘lishi zarur, – deydi “O‘zyo‘lloyiha” LQI DUK texnik havfsizlik va mehnat muhofazasi bo‘yicha mutaxassisi Navro‘zbek Azimov – Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘quvdan, yo‘l-yo‘riqdan o‘tmagan va bilimlari sinab ko‘rilmagan xodimlarni ishga qo‘yish ta‘qiqlanadi.”*

Korxonada muntazam ravishda xodimlarini havfsiz ish uslublari bo‘yicha o‘z vaqtida va sifatli o‘qitish nazorati o‘tkaziladi. Xususan, ishga yangi qabul qilingan xodim “Kirish va ish joyidagi birlamchi yo‘riqnoma” bilan tanishtirilgach, o‘z faoliyatini boshlaydi. Korxonada binosida mehnat qiluvchi xodimlar uchun har 6 oyda “Davriy yo‘riqnoma” o‘tkaziladi. Ishlab chiqarish texnologiyasi yoki texnikasi o‘zgargan xodim “Rejadan tashqari yo‘riqnoma” bilan tanishtiriladi. *“Korxonamizda faoliyat yuritayotgan haydovchilar bilan ham har 3 oyda mehnat muhofazasi bo‘yicha tushuntirish ishlari va suhbatlar o‘tkaziladi. Sababi ularning faoliyatiga mavsum o‘zgarishi, ob-havo o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Yo‘riqnomadan o‘tkazish ish jarayonida turli ko‘ngilsizliklar va baxtsiz xodisalarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega”, – deydi “O‘zyo‘lloyiha” LQI DUK texnik havfsizlik va mehnat muhofazasi bo‘yicha mutaxassisi Navro‘zbek Azimov.* Darhaqiqat, xodimlarga mehnat muhofazasi va texnik havfsizlik bo‘yicha yo‘l-yo‘riq berish – samarali mehnat faoliyatining asosi hisoblanadi.



